


"TASDIQLAYMAN"

Buxoro viloyat
hokimi o'rinosari



N.N. Hamdamov

" "

2022yil

"KELISHILDI"

Buxoro viloyat hokimligi huzuridagi
Region buyurtmachi xizmati injiniring
kompaniyasi direktori



F. Jalliyev

2022yil

"KELISHILDI"

Buxoro viloyat Maktabgacha ta'lif
boshqarmasi boshlig'i vvb



2022yil

"KELISHILDI"

Buxoro viloyat qurilish bosh
boshqarmasi boshligi



2022yil

LOYIHA TOPSHIRIG'I

Buxoro viloyat Gijduvon tumani «Saidkent» MFY hududida 120 o'rini
MTTni qurish.

Shaxsiy qurish surʼati 50 mln soʻm. Shaxsiy qurish surʼati 30 mln soʻm. Shaxsiy qurish surʼati 15 mln soʻm. Shaxsiy qurish surʼati 10 mln soʻm. Shaxsiy qurish surʼati 5 mln soʻm.

Qurish surʼati 30 yillardan 4 yillardan to qora boribor 20 yillardan 25 yillardan.

Qurish surʼati 30 yillardan 4 yillardan to qora boribor 20 yillardan 25 yillardan.

Qurish surʼati 15 yillardan 8 yillardan to qora boribor 15 yillardan 20 yillardan.

Qurish surʼati 10 yillardan 7 yillardan to qora boribor 10 yillardan 15 yillardan.

Buxoro 2022 yil

T/r	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Asosiy ma'lumotlar va talablar mazmuni
1	Obyektning nomi	"Saidkent" MFY hududida joylashgan 120 o'rinli MTTni qurish
2	Qurilish joyi	Gijduvon tumani " Saidkent " MFY
3	Buyurtmachi	Buxoro viloyati xokimligi xuzuridagi yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi
4	Ishlab chiqish uchun asoslar	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 8 sentabrdagi 130-sonli Rayosati majlisining bayoni
5	Qurilish turi	Yangi qurilish
6	Moliyalashtirish manbai	Respublika byudjeti
7	Qurilishni taxminiy bahosi mln.so'm	so'm
8	Loyiha tashkiloti - bosh loyihachi nomi	Tender natijalariga asosan aniqlanadi
9	Pudrat tashkiloti	Xarid tartib taomillari asosida aniqlanadi
10	Obyektning asosiy texnik-iqtisodiy ko'satkichlari, quvvati, unumдорligi, ishlab chiqarish dasturi, shuningdek turar-joy yoki umumiy binolar, ularning vazifalari (qavatlar soni, sektsiyalar va kvartiralar soni, qabul qilish va sig'im qobiliyati).	120 o'rinli maktabgacha ta'lim tashkiloti loyihasini ishlab chiqish (30 kishilik 4 ta guruh to'liq kun uchun)
11	Arxitektura-qurilish, hajmli-rejalahtirish va konstruktiv yechimlar, blokirovkalash shartlari, binolarni pardozlashga talablar.	Maktabgacha ta'lim tashkiloti hududida quyidagi funksional maydonchalarni joylashtirish zarur: <ul style="list-style-type: none"> - guruh binolari; - jismoniy tarbiya maydonchalar; - xo'jalik ishlari maydoni; - tashqi bolalar ayvonchasi; Maktabgacha ta'lim tashkilotini joylashtirish va loyihalashtirish ishlarida quyidagi me'yoriy xujjalardan foydalanish talab etiladi: "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PKM-391 va SHNQ 2.07.01.-03* "Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududini rivojlantirish va rivojlantirishni rejalahtirish" hamda SanPIN va IKN 03-19 O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari". Binoda asosan quyidagilarni ko'zda tutish lozim: <ul style="list-style-type: none"> - kichik guruh (3 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalar 30 o'rinni); - o'rta guruh (4 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar 30 o'rinni); - katta guruh (5 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar 30 o'rinni); - tayyorlov guruhi (6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar 30 o'rinni); O'yin xonalari, guruhlar va yotoq xonalari uchun

		<p>xonalarda tabiiy yoki burchakli shamollatish ta'minlanishi kerak. Richagli framugalar (derazaning 50% dan ko'p bo'lmanan) va shamollatgichlar har bir xonada bo'lishi va barcha fasllarda ishlatalishi kerak. Bo'yod bilan pardozlash ishlarida faqat ochiq ranglardan foydalanish lozim.</p> <p>Oshxona qismlari, kir yuvish xonasi, bufet va yuvish xonalarining devorlari, dazmol xonasi 1,8 m balandlikda bolalarning sog'lig'i uchun zararsiz bo'lgan sirlangan plitka yoki shunga o'xshash materiallar bilan qoplanishi kerak; yuvish va zararsizlantirish vositalaridan foydalangan holda hovuz hammomlari, dush xonalari va zallarning devorlari nam ishlov berish uchun qulay bo'lishi lozim.</p> <p>Guruh oraliqlarining hammomlarida devorlar 1,5 m balandlikda qoplanishi kerak.</p>
12	Obodonlashtirish va kichik arxitektura shakllariga talablar	<p>Loyihalashtirishda quyidagilarni ko'zda tutish lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - kirish va ichki beton yo'llar; - piyodalar yo'lakchalari - beton qoplamlari; - o'yin maydonchalari, o't qoplamlaridan tashqari, zichlangan tuproq asosida bolalarning sog'lig'i uchun zararsiz bo'lgan zamонави sintetik materiallar (sintetik gazon) bilan qoplanishi kerak. O'yin maydonchalaridagi inshootlarning qoplamasi suvga chidamli va oson tozalanishi lozim; <p>Cho'milish basseynlari 20-25 m² kattalikdagi va chuqurligi o'zgaruvchan 0.1-0.5 m chuqurlikdagi erkin shaklda bo'lishi lozim;</p> <ul style="list-style-type: none"> - Tashqi bolalar ayvonchasi o'rindiqlari bilan ta'minlansin.
13	Konstruktiv yechimlarga, yuk ko'tarib turuvchi va tashqi himoya konstruktsiyalarga va ularning materiallarga qo'yiladigan asosiy talablar.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Maktabgacha ta'lif tashkiloti asosiy binosida isitish qozonlari, o't o'chirish anjomlari va nasos bilan ta'minlanishi lozim. <p>Poydevor – lentasimon yoki yig'ma temir beton bloklar;</p> <p>Bino karkasi konstruktsiyasi – quyma temir beton va g'ishtli yuk ko'taruvchi konstruktsiyalar bilan aralash tuzilishi lozim;</p> <p>Devorlar – pishgan g'ishtdan. Tashqi devorlar 380 mm qalinlikda. Ichki devorlar 380 mm qalinlikda bo'lishi shart.</p> <p>Pollar- zal va guruh yotoqxonalarida kam suv o'tkazuvchan qoplamlarga ega bo'lishi lozim (issiq pol, parket, taxta). Sport zallarida relin (asosiy bino), oshxona, dush va sanuzellar, eskirmaydigan va sirpanmaydigan kafel plitalaridan foydalanish zarur.</p> <p>Orayopmalar – dumaloq bo'shliqli temir beton plitalar;</p> <p>Tom qoplamasi – 0,51 mm qalinlikdagi yog'och karkasga o'rnatiladigan rangli tunukadan foydalanish</p>

		<p>lozim.</p> <p>Ichki to'suvchi devorlar (peregordki)</p> <ul style="list-style-type: none"> - 120 mm qalilikda pishgan g'isht yoki penablok, gazoblok va gipsokarton; <p>Derazaga ikki qavatli oyna o'rnatilgan plastik profildan tayyorlangan derazalar o'rnatiladi.</p> <p>Ichki eshiklar yog'och materiallardan yoki MDF dan ishlanishi lozim.</p> <p>Tashqi pardozlash:</p> <p>Fasadlar: sifatlari materiallar bilan zamonaviy uslubda va dizaynda ishlab chiqish:</p> <ul style="list-style-type: none"> tashqi devorni - issiqlikni saqlovchi fasad -bazalt qoplama qalinligi 50mm bo'lган minvata bilan to'ldirib, 3-5mm. PVX setka bilan qoplab, elimli tekislangan suvoq bilan suvoqlab, ustidan dekorativ suvash va devor yuzasi suvoq, akril fasadli rangli bo`yoqlari bilan pardozlash.. - sokol - atroflari marmar plitka, o'rtasi marmar bo'lak-ushog'i;(коръка)
14	Muxandislik va texnologik asbob- uskunalarga, texnologik jihozlarga qo'yiladigan talablar. Texnologik asbob-uskunalarning ro'yxati.	<p>Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimi.</p> <p>Maktabgacha ta'lif tashkiloti hududi va asosiy binosi shahar va qishloq punktlarini rejalashtirish va rivojlantirish bo'yicha gigiena talablariga va QMQ 2.04.01-98 "Binolarning ichki suv ta'minoti va kanalizatsiyasi", QMQ 2.04.02-97 talablariga muvofiq ichimlik, o't o'chirish va issiq suv ta'minoti, oqova suv tizimi bilan ta'minlanishi shart.</p> <p>Suv sifati amaldagi O'zDSt 950-2011 ichimlik suvi standartlariga muvofiq sanitariya talablariga javob berishi kerak.</p> <p>Sovuq va issiq suv ta'minoti tizimlari bilan oshxona, yuvinish, bolalar va xodimlar uchun hojatxonalar, kir yuvish xonalari, tibbiyot xonalari, qo'l yuvgichlar, xo'jalik ehtiyojlari uchun jihozlanishi lozim.</p> <p>Qo'l yuvgich va yuvinish xonalari berilayotgan issiq suv harorati 37 0S dan oshmasligi lozim.</p> <p>Ovqatlanish blokiga berilayotgan issiq harorati 65 0S dan kam bo'lmasligi lozim.</p> <p>Sovuq va issiq suv quvurlari PVXdan amaldagi qoidalar talablariga muvofiq materiallardan tayyorlangan bo'lishi kerak.</p> <p>Chiqindi suvlar oqimini kanalizatsiya tizimi orqali chiqindi suvlar uchun xandaklarga yoki mavjud markaziy kanalizatsiya tizimlariga tushishini ta'minlash kerak.</p> <p>Mavsumiy yog'ingarchilik suvlarini mavjud oqova suvlar tizimiga yo'naltirish hamda temir beton lotoklari orqali chiqarilishini ta'minlash. KMK 2.04.02-97</p> <p>Issiqliq ta'minoti, isitish va shamollatish tizimi.</p>

		<p>Avtomatlashtirilgan, gaz va qattiq yonilg'ida ishlaydigan, texnik xodimlarning doimiy ishtirokisiz ishlashga mo'ljallangan hamda bir-biridan alohida ishlaydigan qozonlar orqali issiqlik ta'minoti bilan ta'minlash lozim.</p> <p>Maktabgacha ta'lif tashkiloti xonalariga o'rnatilgan isitish moslamalarining tashqi harorati 70°С dan oshmasligi kerak.</p> <p>Xonalarning nisbiy namligi, isitish tizimini loyihalash harorati va binoga havo almashinuvi oralig'i me'yoriy hujjalarga muvofiq qabul qilinishi kerak.</p> <p>Bino va xonalarni isitish va shamollatish tizimi QMQ 2.04.05-91 "Isitish, shamollatish va havoni tozalash" me'yoriy hujjatiga muvofiq ishlab chiqilishi kerak. Isitish tizimini loyihalashda zamonaviy biometalldan ishlangan radiatorlarni va sertifikatlangan plastik quvurlar ishlatilishi shart. Isitish radiatorlari yog'och yoki MDF bilan qoplanishi shart.</p> <p>Guruh xonalarida havo sovutish va tozalash (konditsionirovanie) tizimni ko'zda tutish lozim.</p> <p>Elektr ta'minoti tizimi.</p> <p>Elektr tarmoqlariga ulanish nuqtasini aniqlash. Shahar va qishloq hududidagi MTT uchun elektroenergiyasini tarmoqdan uzilib qolgan taqdirda isitish tizimi sirkulyatsion nasoslari (dizel generatori) nazarda tutilishi lozim.</p> <p>Elektr jihozlarni PUE talablari asosida jamoat binolari uchun elektr ta'minotini loyihalash bo'yicha ko'rsatmalarni va boshqa amaldagi me'yoriy hujjalarni hisobga olgan holda ishlab chiqish.</p> <p>Aloqa.</p> <p>Loyihada past kuchlanishli tarmoqlar va aloqa tarmoqlarini (televideniya, internet, videokuzatuv, yong'in xavfsizligi signalizatsiyasi) tortish shart.</p> <p>Maktabgacha ta'lif tashkiloti atrofi bo'ylab, ovqatlanish bo'limida, guruh xonalarida, soyali soyabonli bolalar guruhi o'yin maydonchalarida videokuzatuv uskunalarini o'rnatilishi shart.</p> <p>MTT binolari avtomatik yong'in xavfsizligi signalizatsiyalari bilan jixozlanishi xamda binoning evakuatsiya chiqish eshiklari oldiga avariya xolatida ishlovchi elektr ta'minotiga ulangan maxsus "CHIQISH", "ВЫХОД" xamda "EXIT" yozuvli ko'rsatkichlar inobatga olinishi shart.</p>
15	Loyihalash uchun buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan dastlabki ma'lumotlar tarkibi	<p>1.Tanlangan ob'ekt rekonstruktsiya bo'lsa, binoning holati bo'yicha texnik xulosa olinishi shart.</p> <p>2.Arxitektura rejallashtirish topshirig'i 1 va 2 qism);</p>

		<p>3. Muhandislik va geologik materiallar, topogeodezik xaritalar natijalari;</p> <p>4. Loyihalanayotgan obyektni muhandislik kommunikatsiya tarmoqlariga ularish uchun texnik shartlar: suv ta'minoti, gaz tarmoqlari, elektr tarmoqlari (bosh loyihachi tomonidan energiya talablarini hisoblab chiqqandan keyin).</p>
16	Atrof muhit tabiatini qo'riqlash va saqlash bo'yicha talablar	Obyektning atrof muhitga ta'sirini loyihasini o'rganish (ZVOS) va ekologiya ekspertiza xulosasini olish shart.
17	Smeta hujjatlarini tuzish usuliga talablar	<p>Smeta hujjatlarini amaldagi me'yor va qoidalarga amal qilgan holda ishlab chiqilsin.</p> <p>Smeta hujjatlarini narxlarni amaldagi tartibda hisoblansin (katalog asosida).</p> <p>Taqdim etiladigan smeta hujjatlari tarkibi quyidagilardan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Jamlangan resurs vedomosti; - Jamlangan resurs smeta.
18	Loyihalashtirilayotgan obyekt tarkibi	<p>Loyihalanayotgan mактабгача та'lim ташкiloti hududida quyidagi bino va inshootlar ko'zda tutilsin:</p> <ul style="list-style-type: none"> - 2 qavatli asosiy bino; - 4 ta bolalar guruh o'yingohi tashqi bolalar ayvonchasi bilan birgalikda; - 1 ta jismoniy tarbiya maydonchasi; - nazorat punkti; - oziq-ovqat ombori nazarda tutilsin. - maishiy xizmat ko'rsatish maydoni (choyshablarni quritish, gilam va boshqa anjomlarni tozalash joylari bilan); - o't o'chirish uchun mo'ljallangan nasos (zarur bo'lganda); - suv ta'minoti uchun nasos zarur hollarda suv saqlash idishi bilan; - xonalarni ventilyatsiya tizimi bilan ta'minlash; Tashqi eshlklarda soyabon o'rnatish (kozerek) - Yong'inga qarshi zaxira suv hovuzi hajmi – hisob kitoblar asosida tanlansin; - Oqava suvlar tushadigan xandak hajmi - hisob kitoblar asosida tanlansin; - transformator podstantsiyasi zarur hollarda; - dizel' generatori; - chiqindilar uchun maydoncha; - old tomonidan ochiq to'siqlar (ajurnoe ograjdenie); - uch tomonidan yopiq devor to'siqlar; - Tashqi hojatxona 2 ochko;
19	Qabul qilinadigan loyiha yechimlarida Energiya samarodorlikni ta'minlash bo'yicha talablar	Maktabgacha ta'lim tashkiloti inshootlarida energiyani samarali tejash bo'yicha chora-tadbirlarni ko'zda tutish. Isitishdan tashqari mavsumda qozonxonalarining ishlashi davomida energiyani tejash maqsadida issiq suv ta'minotida quyosh kollektorlarida foydalanish.

20	Loyiha-smeta hujjatlari bo'limlarining tarkibi.	BR (bosh reja, shu jumladan obodonlashtirish); AE (arxitektura yechimlari); T/BK (temir-beton konstruktsiyalar); MK (metall konstruktsiyalar); AQ (arxitektura-qurilish yechimlari); DMK (detallangan metall konstruktsiyalar); IME (isitish qozonlari bo'yicha issiqlik mexanikasi yechimlari); IT (isitish tizimi). SK (suv ta'minoti va kanalizatsiya); YOXS (yong'in xavfsizligi signalizatsiyasi); PKAT (past kuchlanishli va aloqa tarmog'i); TJ (texnologik jixozlar) TST (tashqi suv ta'minoti tarmog'i); TKT (tashqi kanalizatsiya tarmog'i); ET (elektr ta'minoti); AMMQT (atrof muxitni muxofaza qilish tadbirlari); YOXI (yong'in xavfsizligi tadbirlari); EET (energiya samaradorligi tadbirlari); UT (umumiy tushuntirishlar); SM (smeta xujjatlari).
21	Aholini nogironligi bo'lgan va kam harakatlanuvchi guruhlar hayoti faoliyati sharoitlarini ta'minlash bo'yicha talablar	Nogironlar uchun panduslarni ko'zda tutish.
22	Yong'inga qarshi kurash va havfsizligi bo'limini ishlab chiqish bo'yicha talablar	Bo'limni amaldagi me'yor va qoidalarga muvofiq ishlab chiqish, shuningdek SHNK "Bino va inshootlarning yong'in xavfsizligi" dan foydalangan holda.
23	Ko'rgazmali materiallarni tayyorlash bo'yicha talablar	Loyihani tasdiqlash uchun kerak bo'ladigan hajmda. Qo'shimcha, 3D prezentsiya va namoyish uchun al'bom.
24	Qurilish mo'ljallangan muddatlar (yil)	2022-2022 yil
25	Muhandislik-qidiruv ishlarini amalga oshirish bo'yicha talablar, loyihalashning alohida sharoitlari.	Muxandislik tadqiqot va izlanishlar «UzGASHKLITI» DUK tomonidan amalga oshirilgan (muxandislik geologiyasi, gidrogeologiya, topografik s'jomokalar va boshqalar)
26	Loyihalash va qurilishni o'ziga xos shartlari	Buxoro viloyati Qorako'l tumani "Mizaqala" MFY hududida joylashgan 120 o'rinni MTTni qurish Obyekt joylashgan tuman tavsifi: Me'yoriy qor tushish bosimi S =0,5 KPa (50 kgs/m ²) (KMK 2.01.07-96) Me'yoriy shamol tezligi bosimi W =0,38 KPa (38 kgs/m ²) (KMK 2.01.07-96) Tuman seysmik ko'rsatkichi – 8 ball (KMK 2.01.03-96)
27	Qurilish ob'ektining murakkablik toifasi	Qurilish toifasi II
28	Qo'shimcha talablar	Ishchi loyihalar 3 nusxada va elektron shaklda (PDF formatda) 3 ta qattiq diskga

		yozilgan tarzda taqdim etilishi kerak. Loyihani ekspertizadan o'tkazish uchun texnik kuzatuvni amalga oshirish va vakolatli tashkilotlar bilan loyihaning ayrim qismlarini tegishli tartibda kelishib olish.
29	Qurilishda mualliflik nazorati	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 maydagi 321-sod qaroriga asosan:</p> <p>Mualliflik nazorati olib borishga loyihachi tashkilot tomonidan shaharsozlik faoliyati sohasida maxsus ma'lumotga, kamida uch yillik ish tajribasiga ega bo'lgan va belgilangan tartibda sertifikatlangan mutaxassis (loyihachi) tayinlansin.</p> <p>Mualliflik nazorati bo'yicha mutaxassis:</p> <ul style="list-style-type: none"> -Tasdiqlanadigan kalendar rejalar, rejajadvallar yoki shu kabi boshqa hujjalarda, ko'zda tutilgan muddatlarda, shuningdek, buyurtmachining chaqiruvi bilan o'zaro kelishilgan muddatlarda qurilish ob'ektiga tashrif buyuradi; -Mualliflik nazoratini olib borish uchun loyihachi tashkilot tomonidan mualliflik nazorati jurnali tayloranadi, har bir beti raqamlanadi, loyihachi tashkilot va buyurtmachining masul shaxslari tomonidan imzolanadi va muhrlanadi.
30	Loyiha-smeta hujjalarni kelishish bo'yicha talablar	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 28 noyabrdagi 961-tonli hamda 2018 yil 18 maydagi 370-tonli qarorlariga asosan Loyiha-smeta hujjalarni ishlab chiqish ishlari yakunlangach, loyiha tashkilotlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Loyiha-smeta hujjalarni arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiqligi bo'yicha ko'rib Qurilish bosh boshqarmasi kengashi bilan kelishish; 2.Vazirlar Mahkamasining «Markazlashtirilgan investisiyalar hisobdan moliyalashtiriladigan loyiha ishlari va investisiya loyihalarni takominlashtirish uchun qo'shimcha choralar haqida» 2016 yil 22 yanvardagi 15-tonli qaroriga 2-ilovada (Murakkablik toifasi bo'yicha ob'ektlar klassifikasiysi) keltirilgan II toifalarga mansub ob'ektlarning loyiha-smeta xujjalarni bevosita o'zlari sanitariya-epidemiologiya va ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari bilan kelishadilar; <p>- qurilish hajmi 300 kub metrdan ortiq bo'limgan ob'ektlarni bevosita o'zlari tuman (shahar) qurilish</p>

		<p>bo'limlari bilan kelishadilar;</p> <p>Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish jarayoni bilan bir vaqtida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish bo'yicha loyiha hujjatlarini kelishish:</p> <ul style="list-style-type: none"> a) Elektr tarmoqlariga ulashda — O'zbekistonn Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi; b) gaz tarmoqlariga ulashda – hududiy gaz ta'minoti korxonasi; c) iste'molchilar issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ulanishda – issiqlik ta'minoti korxonasi; d) suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulashda – suv quvurlari va kanalizatsiya xo'jaligi tashkiloti tomonidan amalga oshirildi. <p>Loyiha tashkiloti o'zining xohishiga ko'ra loyiha hujjatlarining arxitektera qismini oldin kelishib, keyin loyiha hujjatlarining boshqa qismlarini ishlab chiqishi va kelishishi hamda ekspertizadan o'tkazishi mumkin.</p>
31	Jixozlash	<p>Gilam, konditsioner, kir yuvish mashinasi, muzlatgich, elektro plita, xavo tortish moslamasi, parda (jalyuzi), suv isitgich (ariston). (GOST 16371, SanPiN RUz № 0348-17, UzTR.389-010:2016, GOST MEK 60335-1, GOST 27570.34-92, UzTR.389-010:2016 GOST MEK 60335-1, GOST 24843, UzTR.389-010:2016, GOST MEK 60335-1, GOST 16317, GOST 26678, SanPiN RUz № 0348-17, GOST 29329, MTR.006-2016, GOST 27002, O'z DSt-936, MTR.006-2016, GOST 27002, GOST 16371, GOST 32583)</p>

Buyurtmachi vakillari-tuzuvchi:

Buxoro viloyati xokimligi xuzuridagi yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi vakili

B. Xayitov